



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhasaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	



O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

ALALIYANI BOSHQA NUTQIY NUQSONLAR BILAN FARQLI XARAKTERISTIKASI

Oripova Zilola

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada alaliya nutqiy nuqsonining mohiyati, uning shakllanish sabablari hamda boshqa nutq buzilish turlaridan farqlovchi xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Asosiy e'tibor alaliyaning afaziya, duduqlanish, dislaliya va rinolaliya kabi nutq buzilishlaridan farqli jihatlariga qaratilgan. Tadqiqotda nevrologik, psixologik va lingvistik omillar nuqtayi nazaridan tahlil o'tkazilib, alaliya bilan og'rigan bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: alaliya, nutq buzilishi, afaziya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, markaziy asab tizimi, logopedik reabilitatsiya.

Abstract: This article scientifically examines the nature of the speech disorder alalia, its causes of formation, and the features that distinguish it from other types of speech impairments. The main focus is placed on differentiating alalia from disorders such as aphasia, stuttering, dyslalia, and rhinolalia. The study analyzes neurological, psychological, and linguistic factors and substantiates the importance of a comprehensive approach to developing speech in children with alalia.

Key words: alalia, speech disorder, aphasia, stuttering, dyslalia, rhinolalia, central nervous system, speech therapy rehabilitation.

Аннотация: В данной статье на научной основе рассматривается сущность речевого дефекта алалии, причины его формирования и отличительные особенности от других видов речевых нарушений. Основное внимание уделено аспектам, отличающим алалию от таких речевых нарушений, как афазия, заикание, дислалия и ринолалия. В исследовании проведён анализ с точки зрения неврологических, психологических и лингвистических факторов, а также обоснована необходимость комплексного подхода к развитию речи у детей с алалией.

Ключевые слова: алалия, речевое нарушение, афазия, заикание, дислалия, ринолалия, центральная нервная система, логопедическая реабилитация.

KIRISH

Inson nutqi murakkab neyropsixologik jarayon bo'lib, u miya po'stlog'idagi maxsus markazlar faoliyatining uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Ushbu markazlarning faoliyati buzilganda, turli xil nutq nuqsonlari paydo bo'lishi mumkin. Shulardan eng murakkablaridan biri – alaliya bo'lib, u markaziy asab tizimining erta organik zararlanishi natijasida bolaning nutqining shakllanmasligi yoki sezilarli darajada kechikishi bilan tavsiflanadi.

Alaliya boshqa nutq buzilish turlaridan, jumladan dislaliya, dizartriya va afaziya kabi holatlardan nafaqat klinik manbai, balki patogenezi, simptomatikasi hamda logopedik tuzatish yondashuvlari bilan ham farqlanadi.

So'nggi yillarda logopediya va nutq patologiyasi sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar inson nutq faoliyatining shakllanishi, rivojlanishi va buzilish holatlarini o'rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy nutq terapiyasi amaliyotida eng murakkab va ko'p qirrali nutq buzilishlardan biri sifatida alaliya alohida o'ringa ega. Mazkur buzilish markaziy asab tizimi, xususan bosh miya po'stlog'ining nutq zonalarini faoliyatining erta yoshda organik zararlanishi bilan bog'liq bo'lib, nutqning to'liq yoki qisman rivojlanmaganligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu nuqsonning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat nutqning fonetik-fonematik va leksik-grammatik tizimlariga, balki bolaning umumiy psixik rivojlanish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, alaliya holatlarida logopedik reabilitatsiya jarayonlari ko'p bosqichli, tizimli va individual yondashuvga asoslangan bo'lishi zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida maxsus pedagogika va logopediya yo'nalishlarining izchil rivojlanib borayotgani alaliyani erta aniqlash va samarali korreksiya qilish imkoniyatlarini kengaytir-



moqda. Shu nuqtayi nazardan, alaliya bilan og'rikan bolalarni erta tashxislash, ularni differensial diagnostika asosida boshqa nutqiy nuqsonlardan (masalan, dizartriya, afaziya, rinolaliya, dislaliya, umumiy nutqiy rivojlanmaganlik) farqlash hamda individual korreksion yondashuvni belgilash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

Har bir nutqiy nuqsonning klinik-pedagogik ko'rinishlari, etiopatogenezi va korreksion ishlarda qo'llaniladigan uslublari o'ziga xosdir. Shu bois, to'g'ri tashxis qo'yish va har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash – ularning nutqiy rivojlanish sur'atlarini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilar – L.S. Vygotskiy (1934-yil), A.R. Luriya (1962-yil), R.E. Levina (1991-yil), T.B. Filicheva (2017-yil), G.V. Chirkina (2017-yil) va M.N. Suxareva (1981-yil) – alaliyaning mohiyatini nutqni boshqaruvchi markaziy tizimlarning erta organik disfunktsiyasi sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, alaliyada asosiy muammo miyaning nutqiy markazlari integratsiyasining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, bu holatni oddiy “nutq kechikishi” sifatida emas, balki markaziy nutq mexanizmlarining yetarli shakllanmaganligi sifatida baholash to'g'riroqdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alaliya – murakkab neyropsixologik buzilish bo'lib, u nutq, tafakkur va psixik rivojlanish jarayonlariga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, uni o'z vaqtida aniqlash va kompleks logopedik yondashuv asosida korreksiya qilish bolaning nutqiy hamda intellektual rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu jihatdan, alaliyaning boshqa nutqiy nuqsonlardan farqlanuvchi xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil etish, ularning psixonevrologik, lingvistik va logopedik belgilarini taqqoslab o'rganish logopediya fanining nazariy hamda amaliy yo'nalishlarini boyitadi. Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, alaliyaning boshqa nutqiy nuqsonlardan farqlovchi diagnostik, klinik va pedagogik mezonlarini aniqlash orqali maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda logoped, defektolog va nevropatologlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Alaliya – bu bolalarda markaziy asab tizimi, xususan bosh miyaning nutq bilan bog'liq zonalarining erta organik zararlanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab nutqiy rivojlanish buzilishidir. Bunday holatda bola eshitish qobiliyatiga ega bo'lsa-da va so'zlovchi muhitda tarbiyalansa-da, nutqning shakllanish jarayoni kechikadi yoki sekin rivojlanadi. Odatda, alaliya hayotning ilk yillarida – ya'ni nutq shakllanishi uchun eng sezgir davrda (0–3 yosh oraliqida) miya tuzilmalari zararlanganda yuz beradi. Bu davrda sodir bo'ladigan har qanday organik shikastlanish bola nutqining barcha tarkibiy qismlariga – fonetik, leksik, grammatik va sintaktik tizimlarga – sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Nutq – bu murakkab psixofiziologik faoliyat bo'lib, u faqat miyaning turli sohalari uyg'un faoliyat ko'rsatgan taqdirdagina to'laqonli shakllanadi. Shu sababli, alaliya holatlarida nafaqat Broka va Vernike zonalar faoliyatida, balki ular bilan funksional bog'liq bo'lgan boshqa miya markazlarida ham integratsion jarayonlar buziladi. Bu esa bolaning so'z boyligini kengaytirish, grammatik tizimni o'zlashtirish hamda fonematik eshituvni rivojlantirish jarayonlarini murakkablashtiradi.

Etiologik jihatdan alaliya ko'pincha perinatal ensefalopatiya, tug'ruq jarayonidagi asfiksiya, homiladorlik davridagi infeksiyalar, travmatik ensefalitlar, nevroinfeksiyalar yoki miyaning organik zararlanishlari natijasida kelib chiqadi. Ayrim holatlarda bu buzilish irsiy yoki genetik omillar, shuningdek homiladorlik paytidagi surunkali kasalliklar va erta bolalik davridagi bosh miya jarohatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-psixologik omillar, xususan bola bilan yetarli muloqotning yo'qligi, emotsional sovuqlik va nutqiy stimulyatsiyaning sustligi, alaliya kechishini murakkablashtiruvchi ikkinchi darajali omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Alaliyaning mohiyati shundaki, bu nuqsonda nutq faqat kech shakllanmaydi, balki tizimli yetilmaganlik bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, bolaning nutqi o'zlashtirish bosqichlarini to'liq bosib o'tmaydi, so'zlar, grammatik tuzilmalar hamda nutq harakati uchun zarur bo'lgan neyrofiziologik asoslar to'liq shakllanmaydi. Shu sababli, alaliyali bolalarda nafaqat og'zaki nutq, balki ichki nutq, tafakkur, diqqat, xotira va idrok kabi psixik jarayonlarning rivojlanishida ham sekinlashuv kuzatiladi.

Shunga qaramay, zamonaviy logopedik yondashuvlar, jumladan neyropsixologik rehabilitatsiya va integratsion ta'lim texnologiyalari, alaliyali bolalarda nutq va tafakkur faoliyatini bosqichma-bosqich tiklash imkonini bermoqda. Shu sababli, erta tashxis va individual yondashuv bolaning nutqiy va ijtimoiy moslashuvini tezlashtiruvchi eng samarali omillardan biri hisoblanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchidan, alaliyada nutq shakllanishining tizimli rivojlanmaganligi asosiy belgi hisoblanadi. Bu holat bolaning butun nutq tizimini – fonetik, fonematik, leksik, grammatik va sintaktik darajalarni – qamrab oladi. Boshqa nutqiy nuqsonlarda, masalan dislaliya yoki rinolaliyada, faqat ayrim tovushlarni talaffuz etish mexanizmi buziladi, biroq umumiy nutq tizimi saqlanib qoladi. Shu sababli, alaliya ko'p hollarda umumiy nutqiy rivojlanmaganlik bilan aralashib ketadi. Ammo ularning mohiyatida muhim farq mavjud: umumiy nutqiy rivojlanmaganlik – bu nutq shakllanishidagi kechikish, alaliya esa markaziy nutq mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, afaziya bilan alaliya o'xshash belgilarni namoyon etsa-da, ularning kelib chiqish davri va patogenezi tubdan farq qiladi. Afaziya ilgari shakllangan nutqning yo'qolishi yoki buzilishi bo'lib, asosan kattalarda yoki nutqi shakllangan bolalarda miyaning shikastlanishi natijasida kuzatiladi. Alaliya esa, aksincha, nutq hali shakllanmasdan turib, miya faoliyatining buzilishi oqibatida vujudga keladi. Shu bois, alaliya – bu nutqning rivojlanmaganligi, afaziya esa nutqning qisman parchalanishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, dizartriya va alaliya o'rtasidagi asosiy farq buzilishning darajasi va manbaida namoyon bo'ladi. Dizartriya, asosan, nutq apparati mushaklarining innervatsiyasi buzilib, tovush talaffuzi, ritm, intonatsiya va nutq motorikasi bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatiladi. Biroq bu holatda bolaning so'z boyligi, grammatik tuzilmalari va nutq mazmuni asosan saqlanadi. Alaliyada esa bu komponentlar ham yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ya'ni, alaliya holatida nafaqat artikulyatsion apparat, balki nutq faoliyatining markaziy boshqaruv mexanizmlari ham to'laqonli ishlamaydi.

To'rtinchidan, rinolaliyada nutqning buzilishi asosan fiziologik sabablar – ya'ni burun bo'shlig'i yoki yumshoq tanglay faoliyatining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatda nutqning temбри va ovoz rezonansi o'zgaradi, biroq semantik va grammatik tizimlar asosan saqlanadi. Shu bilan birga, rinolaliya bilan og'rigan bolalarda logopedik mashg'ulotlar yordamida nutqni tiklash nisbatan qisqa muddatda amalga oshiriladi. Alaliya holatlarida esa logopedik ta'sir ko'rsatish jarayoni uzoq muddatli, tizimli va psixonevrologik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bunday integratsion yondashuv bolaning nutqiy, psixologik va intellektual rivojlanishini izchil shakllantirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval: Quyidagi jadvalda alaliyaning asosiy differensial belgilarini boshqa nutqiy nuqsonlar bilan taqqoslash asosida umimlashtirilgan holda ko'rish mumkin

Ko'rsatkichlar	Alaliya	Afaziya	Dizartriya	Dislaliya	Rinolaliya
Kelib chiqish davri	Nutq shakllanmasdan oldin (0–3 yosh)	Nutq shakllanganidan keyin	Har qanday yoshda	Bolalikda	Bolalikda
Asosiy sabab	Markaziy nutq markazlarining organik zararlanishi	Miya jarohati, insult, travma	Markaziy va periferik nerv tizimi buzilishi	Artikulyatsion apparat kamchiliklari	Rezonator tizim patologiyasi
Nutq holati	Nutq tizimli rivojlanmagan yoki yo'q	Oldin mavjud nutq buzilgan	Artikulyatsiya buzilgan, nutq mavjud	Ayrim tovushlar noto'g'ri talaffuz qilinadi	Ovozni chiqarish rezonansi buzilgan
Fonematik eshituv	Rivojlanmagan	Qisman saqlangan	Odatda saqlangan	Saqlangan	Saqlangan
Grammatik tizim	Jiddiy buzilgan	Qisman saqlangan	Saqlangan	Saqlangan	Saqlangan
Leksik boyluk	Juda kam	Qisman saqlangan	Yetarli	Yetarli	Yetarli
Psixik jarayonlar	Umuman sust rivojlangan	Asosan saqlangan	Saqlangan	Saqlangan	Saqlangan
Tiklanish jarayoni	Uzoq muddatli, kompleks	Qayta tiklash mumkin	Logopedik va fizioterapevtik mashqlar bilan to'g'rilanadi	Qisqa muddatli tuzatish yetarli	Jarrohlik yoki rezonansni to'g'rilash orqali yaxshilanadi



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, alaliya nutqning shakllanish bosqichida yuzaga keladi va butun nutq tizimining kompleks buzilishi bilan tavsiflanadi. Dislaliya, dizartriya yoki rinolaliya esa asosan artikulyatsion yoki fonetik darajadagi buzilishlar bilan cheklanadi. Alaliyaning boshqa nutqiy nuqsonlardan asosiy farqlovchi jihati shundaki, unda markaziy nutq tizimi yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Natijada bola nutqni o'zlashtirishning tabiiy bosqichlarini to'liq o'ta olmaydi. Shu sababli, alaliyali bolalarda nutqni shakllantirish faqat fonetik yoki leksik darajada emas, balki psixolingvistik, neyropsixologik va pedagogik yondashuvlar majmuasini talab etadi.

Alaliya bilan og'riq bolalarda nutq faoliyatini tiklash logopedik amaliyotda ko'p bosqichli va tizimli jarayon bo'lib, u individual yondashuvni talab qiladi. Chunki alaliya faqat artikulyatsion apparatning emas, balki butun nutq tizimining markaziy boshqaruv mexanizmlarini qamrab oladi. Shu bois logopedik ta'sir jarayoni fonetik mashqlar bilan cheklanmay, psixolingvistik, neyropsixologik va pedagogik metodlarni uyg'unlashtirgan kompleks reabilitatsiya tarzida amalga oshiriladi.

Alaliyada logopedik ishni tashkil etishda asosiy tamoyil – bolaning yosh xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi, asab tizimi holati va intellektual salohiyatiga mos individual yondashuvni ta'minlashdir. Har bir bola uchun tashxis asosida korreksion dastur ishlab chiqiladi. Ushbu dasturda fonematik eshituvni rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish, grammatik tizimni shakllantirish, og'zaki va ichki nutqni faollashtirish kabi yo'nalishlar uyg'un holda olib boriladi.

Logoped bolaning mavjud imkoniyatlarini aniqlab, shu asosda nutq faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Masalan, motor alaliyada dastlab artikulyatsion motorikani faollashtirish, so'ngra tovush birikmalarini avtomatlashtirish muhim bo'lsa, sensor alaliyada eshituv idrokini va so'zlarni farqlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'ladi.

Alaliyaning tiklanish jarayonida tizimlilik va ketma-ketlik tamoyillariga qat'iy amal qilinadi. Logopedik mashg'ulotlar kompleks yondashuv asosida olib borilib, ular bolaning psixologik, lingvistik va fiziologik rivojlanish darajasiga mos ravishda tashkil etiladi. Dastlabki bosqichda logoped bola bilan muloqotni yo'lga qo'yadi, diqqat, xotira va idrok jarayonlarini faollashtiradi hamda nutqiy motivatsiyani shakllantiradi. Keyingi bosqichda tovushlarni eshituv orqali farqlash, artikulyatsion gimnastika, nafas va ovoz mashqlari bajarish orqali fonetik va fonematik rivojlanish ta'minlanadi. So'ngra leksik-grammatik bosqichda bola so'z boyligini kengaytiradi, gap tuzilishini o'rganadi va semantik bog'lanishlarni mustahkamlaydi. Yakuniy bosqichda esa kommunikativ ko'nikmalar rivojlantirilib, bola nutqni erkin muloqotda qo'llash, dialog va monolog shakllaridan foydalanish, shuningdek ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini egallaydi. Ushbu bosqichlar bir-birini mantiqan to'ldirib boradi va har birida bolaning faol ishtiroki rag'batlantiriladi. Alaliyada multimodal yondashuv logopedik ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, chunki bunda eshituv, ko'ruv va kinestetik sezgi kanallari birgalikda faollashtiriladi. Masalan, vizual materiallardan, piktogrammalardan, jest va mimikalardan hamda predmetli harakatlardan foydalanish so'zlarning ma'nosini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, logoritmika, neyropsixologik mashqlar, nafas va ovoz terapiyasi hamda artikulyatsion gimnastika kabi qo'shimcha metodlar alaliyali bolalarda nutq motorikasini va ritmik sezgirlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zarurat tug'ilganda bu jarayon musiqiy terapiya, psixokorreksion o'yinlar yoki fizioterapevtik mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtiriladi. Logopedik yondashuvning muhim jihatlardan yana biri – oilaviy va pedagogik hamkorlikdir. Ota-onalar logoped tomonidan tavsiya etilgan mashqlarni uy sharoitida muntazam takrorlab, bola bilan faol muloqot olib borishlari lozim, chunki bu amaliyot bola nutqining rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, tarbiyachilar, psixologlar va nevropatologlar bilan olib boriladigan o'zaro hamkorlik korreksion natijalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Logopedik mashg'ulotlar nafaqat talaffuzni to'g'rilash, balki nutqning ma'no shakllanish jarayonini tiklashga yo'naltiriladi. Bu jarayon psixolingvistik tahlilga asoslanadi, ya'ni logoped bolaning so'z idroki, semantik tarmoqlanishi va grammatik strukturalarni anglash qobiliyatini o'rganadi hamda shu asosda individual nutq modellarini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alaliya – nutqning markaziy mexanizmlari yetishmovchiligi bilan bog'liq murakkab buzilish bo'lib, u boshqa nutqiy nuqsonlardan farqli ravishda butun nutq tizimining strukturaviy hamda funksional faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holatda markaziy asab tizimining rivojlanish darajasi, nutq zonalarining faol integratsiyasi va psixolingvistik jarayonlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Dislaliya, dizartriya, afaziya yoki rinolaliyadan farqli ravishda alaliyaning tashxisida etiologik, lingvistik va neyropsixologik belgilar majmuasi birgalikda inobatga olinadi. Logopedik korreksiya jarayoni esa har bir bola uchun individual tarzda, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida olib boriladi. Bunda fonematik eshituvni rivojlantirish, leksik-grammatik tizimni shakllantirish, nutqni ijtimoiy kommunikatsiyada faol qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. Alaliyaning chuqur o'rganilishi, uning differensial diagnostik mezonlarini aniqlash hamda erta tashxislash metodikalarining takomillashtirilishi bolaning nutqiy va ijtimoiy reabilitatsiyasini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Власова, Т. А. Логопедия: руководство для студентов дефектологических факультетов. – Москва: Академия, 2019. – 432 с.
2. Лурия, А. Р. Язык и сознание. – Москва: Издательство МГУ, 2003. – 320 с.
3. Левина, Р. Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – Москва: Просвещение, 1991. – 287 с.
4. Филичева, Т. Б., Чиркина, Г. В. Методика обучения и воспитания детей с общим недоразвитием речи. – Москва: Владос, 2017. – 304 с.
5. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1999. – 350 с.
6. Сухарева, М. Н. Клинические лекции по психиатрии детского возраста. – Москва: Медицина, 1981. – 400 с.
7. Quronov, D., Shodiyev, N., Abdurahmonova, M. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.
8. Raximova, M. Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. – Toshkent: Fan ziyo, 2020. – 210 b.
9. Abdurahmonova, M., Shirinova, M. Nutq buzilishlarini korreksiya qilish metodikasi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021. – 196 b.
10. Jumaniyozova, G. Defektologiyada tashxis va korreksiya asoslari. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2022. – 180 b.
11. Туманова, А. В. Дифференциальная диагностика нарушений речи у детей дошкольного возраста. – Санкт-Петербург: Речь, 2015. – 248 с.
12. Карвасарская, Л. Н. Нейропсихология детского возраста. – Москва: Академический проект, 2012. – 342 с.
13. Lutfullayeva, S., To'xtasinova, N. Bolalarda nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2023. – 192 b.
14. Левина, А. А. Диагностика и коррекция алалии у детей. – Москва: Владос, 2016. – 276 с.
15. Vygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge (MA): MIT Press, 1986. – 287 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.